



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 6-may, № 91 (8986)

Seshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



QAYTA ISHLASH VA EKSPORT QUVVATLARI YANADA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlarni yangi yondashuvlar asosida tashkil etish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Sirdaryo viloyati hudud jihatidan kichik bo'lsa-da, aslida qishloq xo'jaligida katta salohiyatga ega. Asosiy maydonlar daryo va kanallar bo'yida joylashgan, aholisi mehnatkash, barcha infratuzilma qulay.

Yig'ilishda tumanlardagi manzilli o'rganishlar tahlil qilinib, yangi taklif va rejalar ko'rib chiqildi. Ekinlarni yerlarning tuproq-iqlim xususiyatidan kelib chiqib yetishtirish, cho'l hududlarda g'alla, sabzavot va kartoshka hosildorligini oshirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Sug'orish tarmoqlarini ta'mirlab, ikki yilda 20 ming gektar yerni qayta foydalanishga kiritish rejalashtirilmoqda.

Oziq-ovqat loyihalari uchun ham imkoniyatlar ko'p. Jumladan, Oqoltin, Guliston va Boyovut tumanlaridagi 9 ming gektarda 3 ta yirik chorvachilik majmuasini ishga tushirish, 7 ming gektarda yangi texnologiya asosida paxta yetishtirish mo'ljallangan.

Viloyatda 10 ming gektar bog' va tokzor bor. Ularning yarmidan ko'pida nav va agrotexnologiya eskiligi uchun meva-sabzavot xaridorig' emas. Shu bois 2 ming gektar bog'ni yangilab, xorijda eng xaridorig' mevalar yetishtirish, qolganini talabgorlarga taklif etish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, bu yil "O'ng tarmoq" tumanlararo kanalining 607 kilometrini rekonstruksiya qilish va raqamli boshqaruvga o'tkazish loyihasi yakunlanadi. Natijada 35 — 40 foiz suv tejalandi, 27 ming gektarda suv ta'minoti yaxshilandi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, qishloq xo'jaligida hosildorlik va aholi bandligini ta'minlash, oziq-ovqatga bo'lgan ichki talabni to'liq qoplash, qayta ishlash va eksport quvvatlarini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'zA.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR YUZASIDAN JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISH BO'YICHA QONUNCHILIKKA O'ZGARTIRISHLAR KIRITILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Qaror bilan kiberjinoyatlarining barvaqt oldini olish hamda ularni fosh etish samaradorligini oshirish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va qator tashkiliy-texnik choralarini ko'rish belgilandi.

Jumladan, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida yagona ishlash amaliyotini yo'lga qo'yishni nazarda tutuvchi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish hamda yuridik shaxslar tomonidan kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi barcha jinoyatlar yuzasidan javobgarlikni kuchaytirish

bo'yicha qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish topshirildi.

Banklar, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari va boshqa muassasalarning axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida yo'l qo'yilgan kiberjinoyat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibini joriy qilish belgilandi.

Shu bilan birga, bundan keyin kiberjinoyatni sodir etishda o'z nomidagi bank kartasidan, bank hisob raqami, elektron hamyonidan va boshqa shaxsiga doir ma'lumotlaridan (SIM kartasi, elektron akkaunti) foydalanishga yo'l qo'ygan shaxslar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarini o'rnatildi.

O'zA.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILINADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Qaror bilan ichki ishlar organlari faoliyatida zamonaviy raqamli yechimlarni keng joriy etish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda sohada yagona texnologik yondashuvni shakllantirish belgilandi.

Ichki ishlar organlarining axborot infratuzilmasini yagona tizimga birlashtirish, kriminogen vaziyatlar

tahlilini avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Ichki ishlar organlari tarkibida Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti hamda uning hududiy bo'linmalari tashkil etilib, ularning zimmasiga raqamli yechimlarni joriy qilish va muvofiqlashtirish, elektron davlat xizmatlarini takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalar yuklatildi.

O'zA.

YETUK VA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHGA YANGICHA YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash va mutaxassislarning xorijda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning o'qishi, mutaxassislarning tajriba oshirishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Shu maqsadda "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 2 ming 225 nafar stipendiat 45 ga yaqin davlatlarga o'qishga yuborilib, byudjetdan jami 1,5 trillion so'm yo'naltirildi. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafari O'zbekistonga qaytib iqtisodiyot tarmoqlarida, ta'lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlayotgan. Bugungi kunda 748 nafar stipendiat "TOP—300" talikdagi nufuzli universitetlarda ta'lim olyapti.

Endi bunday ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida mazkur fondni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi etib, Davlat boshqaruvi akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi etib qayta tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Ular Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birga kadrlar tayyorlash klasteriga aylantirildi.

Jumladan, istiqbolli mutaxassislarni xorijda tayyorlash bo'yicha bakalavriat, magistratura va doktorantura bilan bir qatorda davlat xizmatchilari olti oygacha maqsadli stajirovkaga yuboriladi.

Bunda energetika, urbanizatsiya, transport, arxitektura, geodeziya, yer munosabatlari, texnika, muhandislik kabi iqtisodiyotning drayver sohalariga,

davlat boshqaruvi va dolzarb ijtimoiy yo'nalishlarga ustuvorlik beriladi.

Xalqaro reytinglarda "TOP—100" talik universitetlarga grant asosida o'qishga kirgan nomzodlarga "El-yurt umidi" stipendiyasi imtihonlarsiz ajratiladi. "TOP—300" talikdagi bo'lgan universitetlarga grantga kirganlarga xalqaro transport va turarjoy xarajatlari imtihonlarsiz qoplab beriladi. "TOP—20" talikdagi universitetlar bakalavriatiga 50 foiz grant asosida qabul qilingan Prezident maktablari bitiruvchilariga stipendiyalar tanlovlarsiz ajratiladi.

Xorijda o'qiyotgan yurtdoshlarimiz bilan doimiy muloqotda bo'lish, ularning ehtiyojlarini aniqlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarida yordamlashish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlarining ota-onalari kengashi tuziladi. Elchixona va konsulliklarga talabalarga huquqiy va tashkiliy ko'mak ko'rsatish vazifalari yuklatiladi.

Zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining ham o'ri katta. U yerda "Hokimlar maktabi", "Rahbar ayollar maktabi", "Kelajak liderlari" kabi kurslarda ilg'or ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. O'tgan o'quv yilida 13 mingdan ziyod tinglovchilarning malakasi oshirildi.

Yangi tizimga asosan endi davlat xizmatchilari uchun 3 ta dastur — malaka oshirish, qayta tayyorlash va magistratura yo'lga qo'yiladi. Barcha uzoq va o'rta muddatli o'quvlar xorijiy

hamkorlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari hamda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tayanch tavsiyalari asosida tashkil etiladi.

Magistraturada "Davlat boshqaruvi", "Davlat siyosati", "Hududlarni kompleks rivojlantirish", "Inson resurslarini rivojlantirish" va "Davlat moliyasini boshqarish" yo'nalishlarida 18 oygacha muddatda chuqurlashtirilgan bilimlar beriladi. Davlat buyurtmasidan tashqari to'lov-kontrakt shaklida ham talabgorlar qabul qilinadi.


Akademiyada ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, nufuzli xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish uchun Xalqaro akademik maslahat kengashi tuziladi.

Shuningdek, akademiya huzurida 4 ta yangi markaz tashkil etilmoqda. Misol uchun, Davlat boshqaruvi muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq etish markazi davlat xizmati samaradorligini oshirish, xususiy sektordagi ilg'or amaliyotlarni davlat boshqaruvida joriy qilishga qaratilgan tavsiyalar berib boradi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, bu tizimlarni yangicha yondashuvlar asosida joriy qilish, jamg'arma va akademiya xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Iqtidorli yoshlarni doimiy izlab topish va yuqori darajada o'qitish, malakali mutaxassislarni islohotlarga jalb qilish muhimligi ta'kidlandi.

O'zA.

Tashrifdan keyingi o'ylar...



YUKSALISHLAR MANZILI BU — GO'ZAL XORAZM!

Xorazm — shonli tariximiz bilan yangi islohotlarimiz tutashgan chorraha! Prezidentimizning shu yil

1-2-may kunlari Xorazmga tashrifi chog'ida aytib o'tgan bu so'zlari har bir yurtdoshimiz qalbiga Qurur va iftixor baxsh etib, ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada jo'shtirib yubordi.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifi davomida islohotlarning amaliy natijalari bilan tanishdi, odamlar hayotidagi o'zgarishlarni bevosita ko'rib navbatdagi rejalar, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Prezidentimizning joylardagi uchrashuvlari, nuroniyalar va yoshlar bilan kechgan samimiy muloqotlari, yangi loyihalar taqdimotlarini yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan kuzatib bordi. Ayniqsa, viloyat faollari bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va Xorazmning kelgusi taraqqiyotini belgilab beruvchi dasturlar voha ahli tomonidan zo'r mamnuniyat bilan kutib olindi.

O'zA.

9-may — Xotira va Qadrlash kuni

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN QALQON BO'LGAN O'G'LONLAR

(Mustaqillik yillaridatinchlik-osoyishtalik yo'lida halok bo'lgan insonlar xotirasiga)

Mustaqillik yillarida qurbon bo'lgan o'g'lonlar, "Qurbon bo'lgan" degim kelmas, qo'rg'on bo'lgan o'g'lonlar. El tinchi-yu omonligi, erk-saodat yo'lida, Vatani uchun, millat uchun qalqon bo'lgan o'g'lonlar. Gar Vatanga aylanmasa, unday ko'ngil ko'ngilmas, "Halok bo'lgan" degan so'zga ko'ngillar hech ko'nikmas. "Halok bo'lgan" degim kelmas, bu o'g'lonlar o'lganmas, Shudring bo'lgan, shamol bo'lgan, osmon bo'lgan o'g'lonlar. Har bolasi hushyor yurtda qoraymas hech quyoshlar, Yuzlariga shom pardasin tortmayin tog'-u toshlar. Ota uyda laganlarda qoldi suzilgan oshlar, Nasibasi tiriklarga

armon bo'lgan o'g'lonlar. Jaholat-u qabohatga tik bordingiz berib jon, Nomingizni yod aylar har ko'cha, har bir xiyobon. Saharlari samolardan mo'ttiraysiz nigoron, Osmonlarda zor-intizor Cho'lpon bo'lgan o'g'lonlar. Birovlari chimildiqqa kirib ham ulgurmagan, Birovlari yor ko'ziga to'yib ham termulmagan. Birovlari farzand ko'rib, o'g'il to'ylar qilmagan, O'z yurtiga qosh-u ko'zi mijgon bo'lgan o'g'lonlar. Birovingiz — Jaloliddin, Bobursiz birovingiz, Tiriklikdan so'rolmasdan hali dil so'rovingiz. Burch-sadoqat sarhadida joningiz — garovingiz,

Burch yo'lida jism-u joni o'lpon bo'lgan o'g'lonlar. Siz barhayot o'g'lonlarsiz, siz hech qachon o'lmagan, O'n sakkizga, yigirmaga, o'ttizga ham to'lmagan, Bu hayotda o'n gulidan bir guli ham so'lmagan, Nom-u yodi mangu bog'-u bo'ston bo'lgan o'g'lonlar. Ul "Ikkinchi jahon..." degan urushda nolam ketgan, Mening besh yuz ming lolam-u besh yuz ming bolam ketgan. Har bir ketgan bolam bilan bir buyuk olam ketgan, Qo'rg'oshinzor ko'ksi ro'yi jahon bo'lgan o'g'lonlar. Jonim bolam, bu mening ham farzimdir, ham qarzimdir, Ayni paytda farzandlarga maktabim dil arzindir. Vatani — mangu maktabimdir, mening mangu darsimdir, Umri ibrat maktabida

irfon bo'lgan o'g'lonlar. Sharaf bo'lsin shunday umr, shunday fido har jonga, Vatani nomi burkangaydir abadiy sharaf-shonga. She'rilar aytam nomingizdan Oliy Bosh Qo'mondonga, Matonati ming bir she'r-u doston bo'lgan o'g'lonlar. Xotiraning rangi moviy — zangor osmon ranglidir, Vatani uchun jon berganlar qadri deim shonlidir. Ona Vatani bayrog'ida o'y, yulduzlar mangudir, Mana shunday porloq davr-u davron bo'lgan o'g'lonlar.

Sirojiddin SAYYID,
Oliy Majlis Senati a'zosi,
O'zbekiston xalq shoiri.

Muloqot

XAVFSIZ MUHITNI TA'MINLASH SENATORLAR NAZORATIDA

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Q. Burhonov hamda Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari podpolkovnik B. Inoqov tomonidan Muzrabot tumani mahallalarida jinoyatchilikning oldini olish va kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi.

Dastlab tumandagi Oriyat va Duoba mahallalaridagi "mahalla yettilligi" hamda ushbu hududga birlashtirilgan mas'ul xodimlarning faoliyati ko'zdan kechirildi. O'rganishlar davomida mazkur mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirish maqsadida xonadonbay va fuqarobay ishlarni tashkil etish, nizoli oilalarning muammolarini o'rganish, kuzatuv kameralari orqali hududni nazorat qilish va "mahalla yettilligi"ning o'zaro hamkorligini kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Muzrabot tumani tibbiyot birlashmasida aholiga yaratilgan shart-sharoitlar, fuqarolarni qabul qilish jarayoni, tibbiy hujjatlarni elektron formatda yuritish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar holati o'rganildi. Tegishli rahbarlarga tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berildi.

Tashrif davomida tuman "Markaziy dehqon bozori"dagi sanitariya holati, infratuzilimaviy sharoitlar va oziq-ovqat narxlari barqarorligi ham o'rganildi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz Prezidenti raisligida korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda berilgan topshiriqlarning ijrosi, mavjud muammolar va kamchiliklar tanqidiy tahlil qilindi. Ayni chog'da kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Bunday o'rganishlar viloyatning boshqa shahar va tumanlarida ham davom ettirilmoqda.

"Xalq so'zi".

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR YUZASIDAN JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISH BO'YICHA QONUNCHILIKKA O'ZGARTIRISHLAR KIRITILADI

Kiberjinoynatlarining oldini olish yo'nalishida axborot tizimidagi zaifliklar va kamchiliklar natijasida kiberjinoynat sodir etilishiga yo'l qo'ygan banklar va to'lov tashkilotlari ro'yxatini ommaga e'lon qilish hamda aholi pul mablag'larini jalb etishga qaratilgan onlayn firibgarlik sxemalari ("moliyaviy piramida")ni barvaqt aniqlash amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, qaror bilan shaxslarning bank kartalaridagi pullarining talon-toroj qilinishini to'xtatish maqsadida banklar, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlariga zamonaviy antivirus va antivirus himoya tizimlarini joriy etish hamda firibgarlar tomonidan soxta raqamlar orqali fuqarolarga qo'ng'iroq qilishlarini texnik (imkonsiz qoldirish) cheklash kabi choralar belgilandi.

Joriy yildan boshlab, har yili bir oy

davomida "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" kompleks targ'ibot mavsumini o'tkazish hamda tashviqot ishlarini sohasida oid barcha davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan faol tarzda olib borish orqali aholining "raqamli immuniteti" va ogohlilgini oshirishning doimiy tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qarorga muvofiq kiberjinoynatlarni fosh etish yo'nalishida Markaziy bank, to'lov tizimi va ichki ishlar organlari vakillaridan iborat tezkor harakatlanish guruhi faoliyati yo'lga qo'yiladi va mazkur guruh tomonidan shubhali pul o'tkazma amaliyotlariga aloqador bank kartalarini tezkorlik bilan aniqlash va bloklash kabi choralar ko'rib boriladi.

Buning natijasida kiberjinoynat orqali jinoynatchilar tomonidan o'zlashtirilgan pullarni respublika hududidan chiqib ketishini oldini olish va jabrlanuvchiga qaytarish imkoniyati ta'minlanadi.

Shular qatorida qaror bilan kiberjinoynatlarni tergov qilish va fosh etish faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ushbu jarayonda qonunchilik ijrosi ustidan prokurorlik nazorati hamda ilmiy tadqiqot faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Bundan tashqari, kiberjinoynatlar qarsi kurashish yo'nalishida xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda sohadagi xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha choralar belgilandi.

Mazkur qarorda ko'rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi mas'ul davlat organlari, tashkilotlar, banklar, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining fuqarolarning kiberjinoynatlardan jabrlanib qolishining oldini olish hamda ularning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILINADI

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida sinov tariqasida tumanlararo raqamli texnologiyalar bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Transformatsiya jarayonlari jadallashtirish maqsadida ichki ishlar vazirligi huridida "Raqamli loyihalar ofisi" tashkil etiladi va unga Raqamli texnologiyalar vazirligining malakali mutaxassislari jalb qilinadi.

Shuningdek, jinoynatchilikka qarshi kurashish va jamaot xavfsizligini ta'minlash sohasida iqtidorli yoshlar, IT-park rezidentlari bilan hamkorlikda innovatsion dasturiy mahsulotlar va startap loyihalarni ishlab chiqish yo'lga qo'yiladi.

Eng muhimi, qarorda aholiga elektron davlat xizmatlarini proaktiv va kompozit shaklda taqdim etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha bir qator topshiriqlar belgilandi.

Qarorda ko'rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi ichki ishlar organlarining samaradorligini oshirish, jinoynatchilikka qarshi kurashda zamonaviy yechimlardan foydalanish, fuqarolarga davlat xizmatlarini qulay va tezkor ko'rsatish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Taraqqiyot bloki"ni tashkil etish to'g'risida RASMIY BAYONOT

Partiyalarning parlamentda yagona kuch sifatida birlashishiga dasturiy maqsadlar, siyosiy mafkura va yo'nalishlar muhtarakligi va g'oyaviy uyg'unligi, shuningdek, ko'p yillik faoliyat davomida to'plangan amaliy tajriba asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkala partiya dasturiy qarashlar, maqsad va vazifalar jihatidan o'zaro yaqindir. Siyosiy maydonda har ikki partiya g'oyaviy jihatdan o'ng qanotda joylashgan bo'lib, O'zLiDeP o'ng-markaz, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi esa o'ng partiya hisoblanadi.

"Taraqqiyot bloki" barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, milliy manfaatlarini qat'iy himoya qilish, ko'p asrlik milliy-tarixiy tajribaga tayanib faoliyat yuritishni muhim deb hisoblaydi. O'zbekiston ravnaqini fraksiyalarni birlashtiruvchi asosiy omil, deb biladi.

Partiyalar o'rtasidagi hamkorlik samaralari bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasida mamlakatda muhim islohotlar amalga oshirildi.

Partiyalarning jamiyat va davlat uchun dolzarb masalalarni hal etishdagi hamkorlik tajribasi ushbu amaliyotni parlament faoliyatiga tatbiq etish imkonini beradi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, milliy manfaatlarini yo'yobga chiqarish va yurt taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarida ikkala partiya yagona kuch sifatida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

"Taraqqiyot bloki"ning ustuvor faoliyat yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- milliy iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va eksport salohiyatini oshirish, monopoli sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazish;
- har bir fuqaroning xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash, fuqarolarning iqtisodiy faoliyat erkinligini rag'batlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- so'z erkinligiga qarshi har qanday urinishlarga qarshi turish va mustaqil nodavlat matbuot tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda erkinlik va ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish;
- ta'lim sifati oshirish va inson salohiyatini rivojlantirish, nodavlat ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, tibbiy sug'urtani joriy qilish, nodavlat tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish;
- soliq ma'murchiligi tizimini soddalashtirish, barcha tadbirkorlar uchun soliqni to'lash borasida adolati va teng sharoitlar yaratish, soliq stavklarining o'zgarishini ta'minlovchi siyosat yuritish;
- Davlat byudjeti xarajatlarni qisqartirish, raqamlashtirish orqali byurokratiyani bartaraf etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- fuqarolarga shaxsiy tanlov imkonini beruvchi xususiy jamg'arma pensiya tizimini yaratish, raqobatbardosh va bozor mexanizmlari orqali boshqariladigan zamonaviy, shaffof pensiya tizimiga o'tish;
- mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatlash.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari ushbu blok orqali umumiy manfaatlariga erishish yo'lida hamkorlikni yanada samarali yo'lga qo'yadi.

Mazkur tashabbus milliy manfaatlariga xizmat qilib, mamlakatni yanada rivojlantirish, qudratli, adolati va zamonaviy davlatga aylantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi.

Partiyalar elektorat ishonchi va qo'llab-quvvatlashini oqlash uchun o'z faoliyatini samarali davom ettiradi.

O'rganish YOSH PARLAMENTARIYLAR NAVOIYDA

Yoshlar siyosatini samarali tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu orqali jamiyatda halollik tamoyillarini mustahkamlash bugungi kun davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish maqsadida Navoiy viloyatida bo'ldi.

Ilk manzil — Navoiy shahridagi 22-umumta'lim maktabi. Yangi qurilgan va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ushbu muassasada 1 800 nafarga yaqin o'quvchilar tahsil o'lmoqda. Maktabda chet tillar, IT, robototexnika, mehmonxona xizmati, suratkashlik kabi yo'nalishlarda o'ndan ortiq kasb-hunar to'garaklari faoliyat yuritadi. "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik otryadi, "Iqtidor" ijodiy klubi, sport va san'at mashg'ulotlari yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tashrif doirasida "Navoiyuran" davlat korxonasida yosh olimlar bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda ilm-fan va innovatsiyalar orqali korrupsiyasiz taraqqiyot konsepsiyasi muhokama qilindi. Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova o'zi boshchiligidagi tuzilma faoliyati, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, istiqbolli loyihalar taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Yoshlar parlamenti a'zolari Navoiy shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan muassasada ham bo'lishdi. Bu yerda yaratilgan ijtimoiy, tibbiy va reabilitatsiya shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishildi. Muassasaning istiqbolidagi loyihalari, jumladan, imkoniyati cheklangan yoshlarga mo'ljallangan yangi xizmatlar haqida ma'lumot berildi.

Ma'naviyat va ma'rifat markazida viloyatning faol yigit-qizlari ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashda yoshlarning tutgan o'rni, ularning fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatdagi faolligi atroflicha muhokama qilindi. Uchrashuv davomida ko'tarilgan ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish kabi muammolarga yechimlar taklif qilindi. Shu bilan birga, yoshlar banki sifatida tanilgan "Aloqabank" ATB tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berilib, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yigit-qizlar uchun zarur maslahatlar berildi.

Yoshlar parlamenti a'zolari korrupsiyaga qarshi kurash doirasida yoshlar bandligini oshirish, kasbga yo'naltirishni kuchaytirish, halollik va odob-axloq madaniyatini keng targ'ib etishga oid ustuvor yo'nalishlarni belgilab oldi.

"Xalq so'zi".

Senator so'rovi

Maqsad – tartibni ta'minlashga erishish

So'nggi kunlarda O'zbekistonga olib kirilayotgan g'ibrid avtomobillarni bojxonada rasmiylashtirish jarayonida "Yevro-4" ekologik toifasidan kam bo'lmaganligini tasdiqlovchi ekologik sertifikat talab etilayotgani jamaotchilikning keng muhokamasi va haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Vaholanki, ushbu transport vositalari "Yevro-5" yoki "Yevro-6" ekologik standartlariga javob beradigan elektrodvigatellar bilan jihozlangan holda mamlakatimizga olib kiritilmoqda.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiyev Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdurahimovga respublikamizda faoliyat olib borayotgan ekologik sertifikatlash organining tashkiliy-huquqiy asoslari, faoliyatini tartibga solish taomillari, avtomobillarni ekologik standartdan o'tkazuvchi akkreditatsiya qilingan

sinov laboratoriyalari, ularning moddiy-texnik bazasi, avtomobillarni sinovdan o'tkazish qamrovi va imkoniyatlari, elektrodvigatellar bilan jihozlangan g'ibrid avtomobillarni rasmiylashtirish jarayonida ekologik sertifikat olish to'g'risidagi talabning me'yoriy-huquqiy asoslari, arizani ko'rib chiqish, ekologik sertifikatlash jarayonini amalga oshirish va ekologik sertifikat berish yoki rad etish yuzasidan ishlar qiymati bo'yicha belgilangan to'lov miqdori masalalariga aniqlik kiritish yuzasidan tushuntirish berishni so'rab senator so'rovi yubordi.

Mazkur so'rov orqali mavjud tartibning ta'minlanishi, joriy etilgan amaliy mexanizmlarda shaffoflikka erishish hamda tadbirkorlar va fuqarolarning ortiqcha qiyinchiliklarga va ovragarchilikka duch kelmasligi maqsadi nazarda tutilgan.

Ikkita OTMda o'qish imkoniyati qachon beriladi?

Yurtimizda oliy ta'lim tizimini zamonaviy va innovatsion asoslarda rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, xususiy sektorni keng jalb qilish orqali ta'lim sifati va qamrovini oshirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar olib borilmoqda.

Sohada yutuqlar bilan bir qatorda ayrim muammoli masalalar bo'yicha aholining murojaatlari soni ham ortib bormoqda. Xususan, fuqarolar tomonidan bir vaqtning o'zida ikkita oliy ta'lim muassasasida, masalan, davlat va nodavlat OTMda kunduzgi va masofaviy yoki kechki va sirtqi shakllarda tahsil olish imkoniyatlarini cheklangani borasida murojaatlar ko'paymoqda.

Ushbu masalalarga aniqlik kiritish va qonunchilikdagi mavjud to'siqlarga izoh berish maqsadida Oliy Majlis

Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipovga senator so'rovi yubordi.

Unda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq fuqarolarga ta'lim olish uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilgan. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida yoshlar uchun ochiq va sifati

ta'limni ta'minlash, ularning intellektual rivojlanishiga sharoit yaratish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Biroq amaldagi tartibga ko'ra jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan abituriyent hujjatining aslini faqat bitta OTMga topshirishi mumkin. Shuningdek, HEMIS axborot tizimida bir marta ro'yxatdan o'tgan talaba boshqa OTMda qayta ro'yxatdan o'ta olmaydi. Bu holat esa yoshlarning o'z ixtiyori va ehtiyojiga ko'ra bir vaqtning o'zida bir nechta ta'lim yo'nalishida bilim olishiga to'sinlik qilmoqda.

Senator so'rovida shu kabi cheklovlar xorijiy davlatlarda, xususan, AQSH, Yevropa mamlakatlari, Rossiya, Qozg'iston kabi davlatlarda mavjud emasligi, aksincha, talabalar bir vaqtning o'zida bir nechta oliy ta'lim muassasasida tahsil olib, ikki va undan ortiq diplomga ega bo'lish imkoniyatiga ega ekan ta'kidlangan.

Shu munosabat bilan senator Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziridan fuqarolarga bir vaqtning o'zida davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ikkitasida tahsil olish imkoniyati yuzasidan rasmiy tushuntirish berishni so'radi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

DOLZARB MASALALAR BO'YICHA QIZG'IN MUHOKAMALAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari o'rtasida tashkil qilingan "Taraqqiyot bloki"ning ilk yig'ilishida dastlab Hisob palatasining 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobot ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Hisob palatasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risidagi Qonun talablari va asosiy prinsiplariga muvofiq amalga oshirib kelmoqda. Bu jarayonda palata faoliyatini avvalgi moliyaviy tekshirish prinsiplaridan yangicha, xalqaro standartlar asosidagi audit o'tkazishga qaratib, davlatning professional xulosa beruvchi va baholovchi audit organi sifatida qayta shakllantirdi.

Hisobot bilan batafsil tanishgan deputatlar o'zlarini qiziqitirgan savollarni o'rtaqa tashladi. Shuningdek, ular ayrim masalalar yechimi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan qiziqdi. Muhokamalardan so'ng Hisob palatasining 2024-yildagi faoliyati bilan bog'liq masala qo'llab-quvvatlandi.

Shundan so'ng kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari ham atroflicha ko'rib chiqildi. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Sog'liqni saqlash vaziri A. Xudoyorovga "Aholi orasida



onkologik kasalliklarning oldini olish va barvaqt aniqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masala ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati yaxshilash va samaradorligini oshirish, shu jumladan, onkologik kasalliklarning oldini olish va ularni barvaqt aniqlash, doimiy skrining tekshiruvlarini tashkil etish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yig'ilishda deputatlarning saylov okruglarida o'tkazgan uchrashuvlari davomida ushbu sohada yechimini kutayotgan muammolarni mavjudligi aniqlangan qayd etildi. Fraksiya a'zosi Dilmurod Ismoilov hududlarda olib borilgan o'rganishlar chog'ida Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy

tibbiyot markazining Namangan filialida onkologik kasalliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan immunogistoximiya (IGX)

apparatni mavjud bo'lishiga qaramay, uni boshqaradigan mutaxassis yetishmasligini aytib, ushbu muammo boshqa hududlarda ham kuzatilganini uqtirdi.

Shundan kelib chiqib yig'ilishda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Sog'liqni saqlash vaziriga parlament so'rovini yuborish masalasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Bu bilan parlamentdagi muxolifat va unga kiruvchi fraksiyalar

respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari aniqlashtirildi.

Shu bilan birga, amaliyotda qo'llanilib kelayotgan "tabiiy ofatlar" tushunchasiga aniqlik kiritilaypti. Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararni baholash tartibi takomillashtirildi.

Fraksiya a'zosi Firdavs Sharipovning fikriga ko'ra belgilanayotgan normaler parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirish orqali qonun ijodkorligi va parlament nazorati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda Hisob palatasining 2024-yilgi hisoboti ham atroflicha ko'rib chiqildi va uning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Shuningdek, deputatlarining joylarda saylovchilar bilan o'tkazgan uchrashuvlari yakunlari, oldinda turgan muhim vazifalar atroflicha muhokama etildi va tegishli qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Uning yordamida texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarining oldini olish, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda tezkor tadbirlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida

respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari aniqlashtirildi.

Shu bilan birga, amaliyotda qo'llanilib kelayotgan "tabiiy ofatlar" tushunchasiga aniqlik kiritilaypti. Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararni baholash tartibi takomillashtirildi.

Fraksiya a'zolarining fikricha, qonun loyihasi aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishga, favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararni baholash va qoplashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan.

Yig'ilishda bir qator aniqlashtiruvchi savollar o'rtaqa tashlandi. Muhokama va savol-javoblardan so'ng ushbu hujjat fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Fraksiya a'zosi Oybek Rahimov qonun loyihasini ishlab chiqishda yig'ilishda ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi atroflicha o'rganilib, tahlil etilganiga urg'u berib, uning qabul qilinishi, albatta, qonun ijodkorligi samaradorligini yanada oshirishga yo'l ochishini ta'kidladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif-tavsiyalar berilib, u qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

Mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotiga xizmat qilish uchun birlashdik

Nodir JUMAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi, O'ZLiDeP fraksiyasi a'zosi:

— Mamlakatimizning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasida belgilab qo'yilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalarining "Taraqqiyot bloki" asosida birlashuvi, bu avvalo, siyosiy voqeadir.

Maqsadimiz davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlarni parlamentda qo'llab-quvvatlash va mamlakatimiz hamda xalqimiz taraqqiyotiga xizmat qilishdir. Parlamentdagi bunday formatdagi bloklar tajribasi ilg'or xorijiy davlatlarning siyosiy amaliyotida qo'llanilgan.

Bunday tajriba mamlakatimiz uchun ham dolzarb. Chunki bir o'ldimizga katta maqsadlarni qo'yganmiz — iqtisodiy o'sish, xususiy sektorni kengaytirish, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy

Islohotlarga nisbatan umumiy va yangicha yondashuv

Kozimjon TOJIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi:

— Blok tashkil topishidagi g'oyaviy asos — bu har ikki partiyaning o'ng qanot maqsadlari atrofida birlashishidir. Unga ko'ra O'ZLiDeP o'ng-markaz, "Milliy tiklanish" esa o'ng pozitsiyani egallagan. Bunday siyosiy muvozanat milliy qadriyatlarini himoya qilish va milliy iqtisodiyotni liberalashtirish o'rtasida samarali uyg'unlikni ta'minlaydi.

Qolaversa, mazkur hamkorlik ikki siyosiy kuchning bir-birini takomillashtiruvchi siyosatlarini, ya'ni milliy o'zlikni saqlash Qoyalari va liberal-demokratik an'analarni birlashtiradi.

Mazkur ikki partiya fraksiyalarining birlashuvi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi strategik qadamlardan biri hisoblanib, "Taraqqiyot bloki"ning ahamiyatini belgilovchi omillardan

himoyasini ta'minlash, ta'lim va tibbiyot sohalarini tubdan isloh qilish. Bularning barchasi yetarlicha siyosiy iroda, birdam harakat va maqsadli qonunchilikni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Taraqqiyot bloki"ning tashkil etilganligi umummilliy rivojlanishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvdir. Blok o'z oldiga barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, milliy manfaatlarini qat'iy himoya etish va ko'p asrlik milliy-tarixiy tajribadan ilhomlanib harakat qilishni ustuvor vazifa etib belgilamoqda. Bu — yangi O'zbekiston ravnaqi yo'lidagi qat'iy siyosiy qadamdir.

Shu munosabat bilan senator Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziridan fuqarolarga bir vaqtning o'zida davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ikkitasida tahsil olish imkoniyati yuzasidan rasmiy tushuntirish berishni so'radi.

— Blok tashkil topishidagi g'oyaviy asos — bu har ikki partiyaning o'ng qanot maqsadlari atrofida birlashishidir. Unga ko'ra O'ZLiDeP o'ng-markaz, "Milliy tiklanish" esa o'ng pozitsiyani egallagan. Bunday siyosiy muvozanat milliy qadriyatlarini himoya qilish va milliy iqtisodiyotni liberalashtirish o'rtasida samarali uyg'unlikni ta'minlaydi.

Qolaversa, mazkur hamkorlik ikki siyosiy kuchning bir-birini takomillashtiruvchi siyosatlarini, ya'ni milliy o'zlikni saqlash Qoyalari va liberal-demokratik an'analarni birlashtiradi.

Mazkur ikki partiya fraksiyalarining birlashuvi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi strategik qadamlardan biri hisoblanib, "Taraqqiyot bloki"ning ahamiyatini belgilovchi omillardan





YUKSALISHLAR MANZILI BU — GO'ZAL XORAZM!

Yangi Urganchning "aqli shaharchasi"

Bundan uch yil muqaddam Urganchda Al-Xorazmiy shaharchasi qurilishiga tamal toshi qo'yilgan edi. Urganch xalqaro aeroporti yonida 130 gektar maydonda barpo etilayotgan ushbu shaharcha "smart" texnologiyalar bilan jihozlanishi sabab el orasida "aqli shaharcha" deb nom olgan. Yangi shaharchada Al-Xorazmiy nomidagi universitet va talabalar yotoqxonalar, 3000 o'rinni maktab va 1500 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi, IT-park, innovatsiya markazi, sport majmuasi, ilmiy-tadqiqot markazi, ko'p qavatli uylar va avtoturargohlar, markaziy alleya — "Yangi O'zbekiston" bog'iga asos solinadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda texnopark



va zamonaviy to'qimachilik korxonalar qurilib, ishga tushiriladi. Loyiha bo'yicha shaharchada buyuk alloma Al-Xorazmiyning balandligi 30,5 metrik muhtasham haykali qad rostlaydi. Xorazmiy nomini dunyoga tanitgan buyuk dahoga hurmat va ehtiromning yana bir ramzi bo'ladi bu shaharcha.

— Prezidentimiz viloyatimizga tashrifi chog'ida shaharcha qurilishini ko'zdan kechirdi va Al-Xorazmiy haykali loyihasi taqdimoti bilan tanishdi, — deydi "Al-Xorazmiy majmuasini barpo etish va saqlash direksiyasi" unitar korxonasi direktori Sherzod Allaberganov. — Davlatimiz rahbari loyihani ham buniyodkorlik, ham ma'naviy jihatdan takomillashtirish, shaharchada yashillikni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Qayd etish kerakki, o'tgan davr mobaynida shaharchada jami 1 773 xonadonli 72 ta ko'p qavatli uy qirib foydalanishga topshirildi. Bu yil yana ming xonadon kallitlari o'z egalariга taqdim qilinadi. Yaqinda shaharchada "Yoshlar texnopark" va boshqa qator xizmat ko'rsatish obyektlari ish boshladi. Yangi shaharcha jobibador hudud sifatida xorij va mahalliy investitorlarning e'tiborini tortmoqda. Ushbu "aqli shaharcha" kelajakda vohaning o'ziga xos ilm-fan, aql va IT markaziga aylanadi.

Maqsad aniq, manzil yaqin

"Toshkentdan Xorazmgacha — 1100 kilometr", deb kuylanadi qo'shiqlardan birida. Darhaqiqat, poytaxtdan Xorazmgacha borish uchun shuncha masofani bosib o'tish kerak. O'tmishda ota-bobolarimiz bu manzilga yo'l azobini tortib, tuyalar karvoni orqali yetib borishgan. Tarixdan ma'lum, Xivaning ma'rifatparvar xonlaridan biri — Feruz taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon Xorazmgacha temir yo'l keltirish uchun ko'p sa'y-harakatlarni bajargan, ammo bu ezu niyatlar amalga oshmay armon bo'lib qolib ketgan.

Voha ahlining bu asiy orzu-umidlari bugungi kunga kelib ro'yobga chiqmoqda. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan hududning transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir nechta yirik loyihalar amalga oshirildi. 2018-yilda Urganchdan Xivagacha temir yo'l qurilib, yo'lovchi poyezdlar qatnovining yo'lga qo'yilishi xalqimiz va qadimiy shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulaylik tug'dirdi. Bundan tashqari, Shovot — Gurlan — Qipchoq temir yo'lining ishga tushirilishi natijasida Rossiya hamda Qozog'istondan yuklarni tashish masofasi 240 kilometrga, tashish vaqti esa 6 soatga qisqardi. Buxoro — Urganch — Xiva temir yo'lini elektrlashtirish loyihasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Kelgusida Janubiy Koreyaning "Hyundai Rotem" kompaniyasidan yuqori tezlikda harakatlanuvchi 6 ta elektro-poyezd xarid qilinib, "Jaloliddin Manguberdi" nomi ostida Toshkent — Xiva yo'nalishida qatnovlar yo'lga qo'yiladi. Natijada hozir Toshkentdan Xivaga borish uchun oddiy poyezdda sarflanayotgan 14 soatlik vaqt tez yurur poyezdlar sharafoati bilan 7 soatgacha, ya'ni 2 barobarga qisqaradi.

Viloyatda nafaqat temir yo'l, balki havo va

avtomobil transportida ham yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanib bormoqda. Urganch xalqaro aeroporti vohaning "havo darvozasi" sanaladi. Bugungi kunda aeroporti soatiga 400 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi. Bu qatnovlarni ko'paytirishga imkon bermayotgan edi. Shu bois aeroportni modernizatsiyalash va boshqaruvga berish rejalashtirilgan. Qurilish-rekonstruksiyalash ishlari 2025 — 2027-yillar davomida Janubiy Koreya kompaniyasi jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. Natijada aeroport "Boeing 747" va "Airbus 350" kabi yirik havo kemalarini qabul qilish imkoniga ega bo'ladi. Aerovokzalda soatiga 1 ming 300 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatiladi.

Viloyatda ichki yo'nalishlarda jamoat transportining xizmat sifati yaxshilanmoqda. Masalan, o'tgan yili Urganch shahriga Xitoyning "Zhongtong" kompaniyasida ishlab chiqarilgan 50 ta zamonaviy avtobus keltirildi. Yangi avtobuslar nogironliligi borlar, keksa va yosh bolalar ayollari uchun yaratilgan qulayliklari bilan ajralib turadi. Urganchda ushbu avtobuslar qatnoviga qo'yilgach, amalda foydalanilayotganlari viloyatdagi boshqa hududlarga o'tkazildi va bu yo'nalishlarda ham xizmat sifati yaxshilandi.

— Xalqimizning "Yo'l azobi — go'r azobi" degan naqli eskirib, bugungi zamonamizga to'g'ri kelmay qoldi, — deydi xivalik mehnat faxriysi Oltanazar Pirnazarov. — Yoshligimda Urganchga borish uchun imkon topsak ot-aravada, ilojini topmasak, soatlab yayov yo'l yurardik. Hozir yo'lga chiqishingiz bilan xohlagan transportda Qiz etib manzilga yetib olasiz. Men yo'l bo'yida amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlari, o'zgarishlarni tomosha qilib ketish maqsadida

"Voha ahlining bu asiy orzu-umidlari bugungi kunga kelib ro'yobga chiqmoqda. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan hududning transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir nechta yirik loyihalar amalga oshirildi. 2018-yilda Urganchdan Xivagacha temir yo'l qurilib, yo'lovchi poyezdlar qatnovining yo'lga qo'yilishi xalqimiz va qadimiy shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulaylik tug'dirdi."

ko'pincha avtobus yoki trolleybusga chiqqan. Gaping sirasini aytсам, menga shaxsiy avtomobilimda yurishdan ko'ra jamoat transportida yurish ma'qul bo'lib qoldi. Prezidentimiz Xorazmgacha tashrifida ta'kidlaganidek, kelgusi yil Toshkent — Xiva yo'nalishida tez yurur poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilishi, bu yil viloyatga 80 ta yangi avtobus, 50 ta mikroavtobus va 10 ta zamonaviy trolleybus keltirilishi natijasida yaratiladigan qulayliklardan xalqimiz mingdan ming rozi bo'ladi, albatta.

"Arda Xiva" — hududning ikkinchi "tashrif qog'oz"

Keyingi yillarda Xiva qator nufuzli xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlarga mezbonlik qilayotgani Sharq gavhari hisoblangan bu azim shaharning jahon madaniy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini anglatadi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda yurtimizning turizm salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro turizm markazlari bunyod etilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Xorazmda ham tarix va bugunni bog'lovchi, milliylik va zamonaviylik uyg'unlashgan ertaknonand shaharcha qad ko'tardi. Tarixiy Hovuk ko'li bo'yida qurilgan ushbu markazning umumiy maydoni qariyb lchan qal'a hududiga teng, ya'ni 24,5 gektarni tashkil etib, me'moriy yechimi ham lchan qal'aga o'xshaydi. Faqat hayratlanarli tomoni shundaki, lchan qal'a xonliklar zamonida asrlar mobaynida qurilgan bo'lsa, hajmi shunga qariyb teng bo'lgan ulkan majmua atigi to'qqiz oyda bunyod etildi. Shaharchada tarix muzeyi, Sharq bozori, savdo do'konlari, 9 ta restoran, 5 ta kinoteatr va konsert zalari, ko'rgazmalar pavilyoni, zargarlik markazi, hunarmandchilik uylari barpo etilgan, suv mototurizmi va qayiqlarda sayr qilish imkoniyati yaratilgan. Shaharchada 17 ta mehmonxona va mehmon uyi, biryola 2 ming kishiga xizmat ko'rsatuvchi ochiq va yopiq akvapark, atraksionlar, 3 ming o'rinni amfiteatr, musiqiy favvoralar mavjud. Turizm markazi ishga tushishi munosabati bilan 2 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Bu yerda yirik xalqaro tadbirlarni tashkil qilish uchun barcha imkoniyat yetarli.

— "Arda Xiva" xalqaro turizm markazida O'zbekiston Prezidenti ishtirok etgan tadbirda

qatnashganidan juda mamnunman, — deydi amerikalik sayyoh Sitsiliya Xenri. — Majmuaning me'moriy yechimini ko'rib o'zinni ertaklar olamiga, Sharqdagi "Ming bir kecha" afsonalariga tushib qolganday his qildim! Xalqimizning ulkan buniyodkorlik salohiyati mahsuli bo'lgan bu betakror shaharcha endilikda xorijlik va mahalliy sayyohlarning sevimli maskaniga aylanishiga shubha yo'q.

Endilikda, Xivada "Arda Xiva" kabi yana bir sayyohlik majmuasi quriladi. "Sahro yulduzi" deb nomlangan ushbu turistik kompleksda mehmonxonalar, ko'ngilochar maskanlar, gastronomik va savdo ko'challari, muzeylar, ekstremal turizm obyektlari barpo etiladi. Davlatimiz rahbari Xorazmgacha tashrif chog'ida hududning turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish borasidagi boshqa muhim masalalarga ham e'tiborni qaratdi. Jumladan, madaniy yodgorliklarni o'rganish, qadimiy qal'alar bo'ylab yangi sayyohlik marshrutini tashkil qilish, xalqaro brendga ega mehmonxonalar qurish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash kabi masalalar bo'yicha topshiriqlar berildi.

Xorazmiyning turizm salohiyatini yuksaltirish borasidagi ishlar nafaqat Xivada, balki viloyatning barcha hududida olib borilmoqda. Urganch shaharining qoq markazidan o'tuvchi Shovot kanali sohilidagi sayilgohlar, yangidan barpo etilgan "Lazgi" va "Avesto" majmuayari, Urganch tumanida qurilgan of sperti majmuasi xorijlik va mahalliy sayyohlar uchun o'ziga xos tuhfa bo'ladi.

Tarixdan ma'lum, Xorazm vohasidan islom madaniyati va ma'rifati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Shulardan biri xalq orasida Ulli pir, ya'ni katta pir, deb alohida ehtirom ko'rsatiladigan tasavvuf ilmining yirik namoyandasi Yusuf Hamadoniy hazratlaridir. Bu ulug' zotning xonaqo'hi "Xuroson kab'asi" deb e'tirof etiladi. Har yili dunyoning turli mintaqalaridan ko'plab sayyohlar ushbu

qoldirayotgan kibernetika, kosmonavtika va axborot tizimlari rivojiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ana shunday buyuk dahoning vorislari yashayotgan zamin bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiyalar borasida o'z mavqeiini egallashga ma'nan haqlidir. Urganch shahridagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Shahzoda Kamolova mazkur universitetning ilk talabasi bo'ladi.

— "Arda Xiva" majmuasida xorazmlik yoshlar bilan bo'lib o'tgan muloqotda Prezidentimiz matematika, ingliz tili va IT sohasiga qiziqishimdan kelib chiqib, menga Urganchda yangi tashkil qilingan Al-Xorazmiy nomidagi universitetning ilk talabasi bo'lishni taklif qilganida sevinchdan ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi, — deydi Shahzoda Kamolova. — Ertasigayoq Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova menga mazkur universitetga o'qishga qabul qilinganim haqidagi sertifikatni topshirdi. Prezidentimizning bu yuksal ishonchi mening zimmamga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Kelajakda IT sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib, buyuk bobomiz Al-Xorazmiyning munosib vorisi bo'lishga va'da beraman.

Yuqoridagi qarorga ko'ra buyuk bobomiz nomi bilan ataluvchi shaharchada Al-Xorazmiy nomidagi universitet bilan birga Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Urganch of sperti ham tashkil etiladi. O'quv jarayoni 7-yillik dastur asosida "STEM" modeli bo'yicha amalga oshiriladigan ushbu ta'lim maskanida axborot texnologiyalariga qiziquvchi yoshlar maktab davridan shu sohaga chuqur yo'naltiriladi. Qisqacha aytganda, o'nlik sanoq tizimining butun dunyoga tarqalishiga sabab bo'lgan ko'hna Xorazm zaminidagi bugungi yangilanish va tub o'zgarishlar buyuk ajdodlarimiz an'analari davomiyligidan darak beradi.

Taraqqiyotning "Yo'l xaritasi"

Xorazmliklar davlatimiz rahbarining tashrifini doim intilqil bilan kutadi. Chunki Prezidentimiz vohaga har gal yangi tashabbus va takliflar, reja va dasturlar bilan keladi. Xalq farovonligiga xizmat qiladigan xayrii boshlamalarga qo'l uriladi. Bu gal ham shunday bo'ladi. Aytish mumkin, davlatimiz rahbari viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi "Yo'l xaritasi"ni e'lon qildi.

— Prezidentimizning viloyat faollari, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvi juda samimiy, qizg'in fikr almashuvlarga boy bo'ladi, — deydi "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi rahbari Rustam Sultonov. — Ayniqsa, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq yangi loyihalar to'g'risida eshitib, nihoyatda to'liqlanib ketdim. Eng chekka Tuproqqal'a tumanida yirik gaz-kimyo majmuasi, Hazoraspeda kimyo texnoparkini, Qo'shko'pirda "O'zbekiston — Xitoy" texnoparkini qurish, Tuproqqal'adagi avtomobil zavodida "Yevro-5" ekologik standartiga javob beradigan yangi rusumdagi



avtomobil ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, kanalizatsiya tizimini barpo etish borasidagi topshiriqlar bu yil xorazmliklar hayotida quvonarli yangiliklarga boy bo'lishidan, o'zgarishlar va buniyodkorlik jarayonlari av pallasiga kirishidan darak beradi.

Asosiylari, viloyatda yillik 6 foiz iqtisodiy o'sish ta'minlanadi, yalpi hududiy mahsulot hajmi 60 trln. so'mga yetkaziladi. Bunaqasi hali voha tarixida bo'lmagan! Logistika zanjirlaridan uzoqda, tabiiy resurslari cheklangan bu diyor o'zining ilmiy salohiyati, inson kapitali bilan ana shunday natijalarga erishishga qodir. Azaldan taraqqiyot, ilm-u hikmat, ma'naviyat va ma'rifat beshigi sanalagan go'zal vohani oldinda ulug'vor o'zgarishlar, buniyodkorlik ishlari, yangilanishlar kutib turibdi.

Odilbek ODAMBOYEV ("Xalq so'zi")

Minbar

MATBUOT — MASLAHATCHI VA HAMKOR

Buxoro viloyati va Toshkent shahrida ishlaganimda kundalik gazeta va jurnallarni kuzatib borardim. Umuman, bizning avlod mutolaaning ruhiyatiga, kayfiyatiga, dunyoqarashga ta'sirini o'z faoliyatida anglab yetgan.

Sohadagi tizim o'zgartirish sababli matbuot nashrlarini ertalab do'konlardan olish xoki xonadonlarga etib berish juda kamayib ketdi. Lekin baribir obuna bo'lgan yoki qo'limga tushgan nashrlarni albatta o'qib chiqqan. Hatto ayrim kerakli faktlarni yon daftarimga yozib qo'yaman.

"Odamlar gazeta o'qimay qo'ydi" degan gapga ishonmayman. Ma'rifatga esh odam uni shubhasiz, topib o'qiyapti. Chunki kundalik nashrlar, avvalo, axborot bilan ta'minlaydi, ikkinchidan, o'qish jarayonida ruhiyatini yangillatadi. Uchinchidan, u sizdagi savodlilikni, mulohaza yuritish qobiliyatini ushlab turadi. Negaki, gazeta o'qish jarayonida siz fikrlaysiz, saboq olasiz, xulosa qilasiz.

Samarqand viloyatiga ishga kelgach, bu yerda ommaviy axborot vositalari, xususan, gazetalari bilan ishlash boshqa viloyatlarga qaraganda, ancha yaxshi yo'lga qo'yilganini ko'rdim. Viloyat "Zarafshon" gazetasi haftada uch marta, to'rt rangda, 16 ming nusxada chiqadi. Rus va tojik tillaridagi viloyat gazetalari ham ahvol yomon emas.

Ayrim tuman gazetalari haftasiga bir marta chiqadi. To'g'ri, hali 15 kunda bir marta chiqadigan gazetalarga ham bor. Ularning muassislari bilan tushuntirish ishlari olib boryapmiz.

Mening ham odamim shu: ishini stolim ustida turgan gazetalarni varaqlashdan boshlayman. Chunki ularda ba'zan bizning yodimizga kelmagani yoki esimizdan chiqqan muammolar ko'rariladi. Hatto, ularning yechimigacha aytiladi. Xususan, tanilqil jurnalistlar O'ktir Rahmat va Abdusad Ko'chimovning "Xalq so'zi" gazetasida bosilgan maqolalarida aytilgan matbuotga munosabat to'g'risidagi fikrlariga qo'shilaman.

Ommaviy axborot vositalari deganda, ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlarni tasavvur qiladigan bo'lib qoldi. Vaholanki, gazeta har bir viloyat va tuman hokimligining minbari. Ular ana shu nashrlar orqali aholiga o'z siyosati mohiyatini yetkazishi zarur.

Joylarda bo'lganimda mehnat faxriylari, ziyolilar, xususan, o'sha joyda chiqadigan gazetalari xodimlari bilan suhbatlashishga harakat qilaman, ularning fikrlarini inobatga olaman. Ayrim tumanlar hokimlari bilan ularning muassisligidagi nashrlar binolarini ta'mirlash choralarini ko'ryapmiz.

Juda ko'p tadbirlarda, loyihalar, dasturlar muhokamalarida OAV vakillari taklif etyapmiz. Yil boshida "Zarafshon" gazetasida "Oila davrasida" degan sahifa ochildi. O'yiga ikki marta beriladi. Unda jismoniy tarbiya va sport, axloq-odob, tarbiyaning inson hayotidagi o'rni to'g'risida materiallar berib boriladi. Yaqinda tadbirkorlar bilan kelishib, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi orqali yetarli miqdorda grant mablag'i ajratildi. Unga asosan yil davomida ekologik mavzuda, muqobil energiya, suvni tejash, tabiatni asrash kabi yo'nalishlarda tayyorlangan eng yaxshi tahliliy maqola, ocherk, felyeton, ko'rsatuv va videoroliklar uchun yaxshigina mukofotlar belgiladi.

Matbuot, bu — ijtimoiy voqeilik. U inson ma'naviyati, ehtiyojidan kelib chiqqan narsa. Kitobdan keyingi mo'jizalardan biri. Shuning uchun ham uning xizmatidagi bebaho.

Davlatimiz rahbari har bir tadbirda oshkorlik, ochliqlik siyosati, bu borada OAV bilan mustahkam aloqa bog'lash haqida gapiradi. Biz ana shunga amal qilgan holda bundan keyin ham matbuot nufuzini oshirishga, ularning xodimlari ijtimoiy himoyasini yaxshilashga harakat qilamiz.

Adiz BOBOYEV, Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi.

QADRIYATLARI TUTASH XALQLAR

Bugungi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida tarixan shakllangan yaqin do'stona munosabatlar o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilgan.

Munosabat

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy va ma'naviy aloqalar chuqur tarixiy idilzarga ega. O'zaro hamkorlik asrlar davomida rivojlana borib, o'yaviylik va mohiyat nuqtayi nazaridan bir-biriga hamohang, shakl va mazmun jihatidan uyg'unlik kasb etgan. O'zbek va ozarbayjon xalqlarining atloqi namoyandalari Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy janab madaniyati, ilm-fani va adabiyotiga beqiyos hissa qo'shgan zotlardir. Ularning bebaho merosi O'zbekiston va Ozarbayjonda behad e'zozlanadi, asrab-avaylanadi va chuqur o'rganiladi.

2024-yilning 23-24-avgust kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lgan va ikkala mamlakat rahbarlari "O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi Shartnomani imzolagan edi.

Oliy Majlis Senatining 6-yalpi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi Shartnomani (Toshkent, 2024-yil 23-avgust) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni tasdiqlandi.

Mazkur Shartnomaning ratifikatsiyasi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stona aloqalar va strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirdi. Shu bilan birga, kelishuv siyosiy hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

E'tibori jihatli shuki, ushbu Shartnomada tomonlarning o'zaro ko'p qirrali hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida parlament diplomatiyasini, ikki davlat parlamentlarining do'stlik guruhlari yo'nalishida, shuningdek, xalqaro parlamentlararo tashkilotlar doirasida yaqindan hamkorlikni qo'llab-quvvatlashlari qayd etilgan.

Ushbu Shartnomaning qonun bilan ratifikatsiyasi qilinishi: — O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari o'rtasida o'zaro ikki tomonlama munosabatlar yangi va oliy darajaga olib chiqilishiga hamda uning huquqiy tartibiga solinishiga;

— ikki davlatning ishonchli sherik sifatidagi ittifoqchilik munosabatlarga ega hamkorlari doirasi yanada kengayishiga;

— davlatlarning xavfsizlikka tahdidlar qarshisida doimiy hamkorligini yanada mustahkamlashiga;

— strategik va savdo-iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratishiga;

— mamlakatlarning masalalarini Davlatlararo oliy kengash yig'ilishlari doirasida hal etish orqali tomonlar o'rtasida hamkorlikning keng qamrovli rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Umuman, mazkur Shartnomada nafaqat tarixiy ahmiyatga ega hujjat, balki o'zbek — ozarbayjon hamkorlik munosabatlari yanada kuchaytirish uchun mustahkam huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

SIFATLI TA'LIM MEZONLARI

Miloddan 200 yil oldin yashagan buyuk yunon matematigi Arximed og'ir yuklarni ko'tarish va siljtitishga doir muvaffaqiyatli tajribalaridan ruhlanib ketib "Menga tayanch nuqtasini topib bersangiz, Yerni ham siljitaman", deb aytgan ekan. Haqiqatan ham, tayanch nuqtani inobatga olib, katta kuchni kichik kuch bilan muvozanatlaydigan oddiy mexanizm bo'lgan dastak yordamida og'ir yuklarni ko'tarish hamda siljitish qonuni yaratilgan va bu insoniyat uchun qulaylik tug'dirgan. Hozirda ham mazkur vazifani bajaruvchi har qanday qurilma ushbu qonun asosida ishlab kelmoqda.

Nuqtai nazar

Maktab ta'limi sifatini oshirishda, eng avvalo, nimaga e'tibor qaratish lozim? Ramziy ma'noda aytganda, bu "og'ir yuk"ning tayanch nuqtasi qayerda? Hech shubhasiz aytish mumkinki, bu tayanch nuqta pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash tizimidir.

Har bir avlod o'zidan keyingi avlodning yanada ilmiy bo'lishi haqida qayg'urishi — bu uning insoniy burchi hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining "Ilim va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohada kelajak bo'lmaydi", degan so'zlari zamirida ham shu haqiqat mujassam.

Aynan shuning uchun ham Prezidentimiz davlat sarmoyasining salmoqli qismini ta'lim sohasiga ajratmoqda. Ta'lim va tarbiyaga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qaralishi yaqin kelajakda mamlakatimizning texnologik rivojlanishi, yangidan-yangi ixtirolarning kashf etilishiga asos bo'lishi, shubhasiz. Tarixan qaysi jamiyatda ilm-fan rivojlanishiga

jiddiy e'tibor qaratilsa, u yerda malakali mutaxassislar yetishib chiqadi va ular orqali taraqqiyotga erishiladi. Bu isbot talab qilmaydigan hayotiy haqiqatdir. Insoniyat asrlar davomida bunga guvoh bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi keyingi yillarda katta islohotlar maydoniga aylandi. Pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlari xorijiy tajribalar asosida qayta ko'rib chiqildi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy metodikalar tatbiq qilinib, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirildi hamda izchil davom ettirilmogda.

Hozirgi kunda 31 ta davlat, 40 ta nodavlat va 5 ta xorijiy oliyog'hlarning filiallarida pedagog kadrlar tayyorlanayotgan bo'lsa, tizimda yagona yondashuv yo'qligi sababli ularning barchasida ham o'qituvchi tayyorlash masalasida bir qator muammolar mavjud.

Prezidentimiz tomonidan 2025-yil 28-aprelda qabul qilingan "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni sohada yig'ilib qolgan muammolarni yechish, mamlakatda yagona konseptual yondashuv asosida 2030-yilga qadar pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

Farmon bilan hududlardagi 11 ta pedagogika oliygohi hamda Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali negizida tashkil etilgan Kattaqo'rg'on pedagogika instituti, O'zbekiston — Finlyandiya

amalga oshirishning aniq manzilli mexanizmlari belgilab berilgan. 2025/2026 o'quv yilidan pedagog kadrlar tayyorlash faqat kunduzgi va kechki ta'lim shakli bo'yicha tashkil etiladi, sirtqi ta'lim shakliga qabul to'xtatildi.

Farmonga ko'ra Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2026/2027 o'quv yilidan e'tiboran, respublikada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish

takomillashtirish, maktabgacha va maktab ta'limi tizimining ilmiy muammolari bankini yaratish, ilmiy tadqiqot ishlarini tizimdagi ushbu muammolar yechimiga qaratish, sohada ilmiy maktablarning yutuqlari va tajribalarini ommalashtirish orqali maktab ta'limi sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samaradorligi oshadi.

Davlatimiz rahbarining "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti negizida Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tashkil etilgani mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ziyoli pedagoglar uchun yuqori darajadagi motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Ishonamizki, ushbu universitet jahon andozalariga mos, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallagan yetuk mutaxassislarini tayyorlovchi yetakchi ta'lim dargohi sifatida pedagog kadrlar tayyorlash siyosatini, pedagogik ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlaydi. O'z navbatida, bu, ma'rifat ravnaqiga xizmat qiluvchi, dunyo ta'lim sahnasida o'z o'rniga ega bo'lgan nufuzli ta'lim dargohi sifatida dong taratishiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi, shubhasiz.

G'ayrat JABBOROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining fizika-matematika fakulteti dekani.

"... Prezidentimiz davlat sarmoyasining salmoqli qismini ta'lim sohasiga ajratmoqda. Ta'lim va tarbiyaga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qaralishi yaqin kelajakda mamlakatimizning texnologik rivojlanishi, yangidan-yangi ixtirolarning kashf etilishiga asos bo'lishi, shubhasiz."

pedagogika instituti negizida ochildigan Samarqand davlat pedagogika instituti Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.

Shuningdek, Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi hamda Pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Chora-tadbirlar dasturi 2025 — 2030-yillarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini ravnaq toptirish borasida 5 ta yo'nalishdagi 22 ta yaxlit vazifani o'z ichiga olgan bo'lib,

maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostikadan o'tkazish tizimi joriy etiladi. Bunda diagnostika natijalariga ko'ra pedagog kadrlar sifatini belgilangan talabarga javob bermaydigan ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni cheklash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Farmon bilan imzolangan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni bajarish, xususan, Buyuk Britaniyaning "Cambridge University Press and Assessment" tashkiloti bilan hamkorlikda xalqaro talablarga muvofiq pedagog kadrlar tayyorlanadigan ta'lim dasturlarini



Og'ir atletika: dastlabki yutuqlar

Peruda o'tayotgan og'ir atletika bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida terma jamoamiz dastlabki oltin medallarga ega chiqdi.



Xokkey: terma jamoamiz raqiblari ma'lum

Xokkey bo'yicha 2026-yilgi jahon chempionati III divizionining "A" va "B" guruhida qatnashadigan terma jamoalar nomi aniq bo'ldi.



Biz uchun ahamiyatli ushbu jamoalar orasida O'zbekiston terma jamoasi ham o'rin oldi.

Rasmiy manbalarga ko'ra O'zbekiston milliy terma jamoasi kelasi yilgi jahon chempionati III divizionining "B" guruhida KXDR, Honkong, Mo'g'uliston, Filippin va Lyuksemburg terma jamoalari bilan o'zaro bellashadigan bo'ldi. Mazkur divizionning "A" guruhidan esa Turkmaniston, Bosniya va Gersegovina, Turkiya, JAR, Meksika va Tailand termalari o'zaro raqobatlashadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston xokkey terma jamoasi Armanistonda shu yil aprel oyida o'tgan jahon chempionatining IV divizionida 13 ochko jamg'arib, eng yaxshi natija qayd etgan holda dunyo birinchiligi III divizioniga yo'llanmani qo'lga kiritgandi.

Velosport: o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati

Jizzaxda velosportning shosse yo'nalishi bo'yicha kichik o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.



Unda yurtimizning barcha hududidan iqtidorli va umidli sportchilar ishtirok etdi.

Chempionat doirasida turli masofalarda guruh poygalari tashkil etildi. Jumladan, o'g'il bolalar o'rtasida 42 kilometr masofaga bo'lib o'tgan bellashuvda Emil Valishen (Toshkent viloyati), Shoakmal Shoakmalov va Mironshoh Bahodirov (Toshkent shahri) shohsupaga ko'tarildi.

Qizlar o'rtasidagi 21 kilometr masofaga o'tgan guruh poygasida Omina Tursunova (Sirdaryo viloyati) oltin, Tansolpan Alimbayeva (Toshkent viloyati) kumush, Milana Yarovaya (Sirdaryo viloyati) esa bronza medalga ega chiqdi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan rag'batlantirildi.

"Xalq so'zi".

"Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarini tahririyati jamoasi tahririyat xodimi Shodiyor Mutaharova onasi **Imsin aya QO'CHQOROVANING** vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

MINORAI KALONNING ME'MORI KIM?



Ko'hna Buxoroni Minorai kalonsiz tasavvur etish mushkul. Shaharga kelgan sayyoh borki, uni ko'rmay ketmaydi. Da'fatan odamning xushbichim qomatini eslatadigan bu obida haqida ko'p va xo'p yozilgan bejiz emas. U hamda Masjidi kalon va Mir Arab madrasasi joylashgan hudud yaxlit holda Poyi kalon me'moriy ansambli deb ataladi. Bu go'sha "Shanxay hamkorlik tashkilotining 8 mo'jizasi" ro'yxatidan o'rin olgan.

Tarix sarchashmasi

Minorai kalon (Katta minora) so'nggi qoraxoniylar hukmdori Arslonxon farmoniga muvofiq 1127-yilda qurib bitkazilgan. Balandligi 47,5, aylanasini 9 metrdan iborat, 105 pillapoyali bu obida o'z vaqtida "Arslonxon minorasi" deb ham atalgan. Mutaxassislar Minorai kalonga Buxoro me'morchiligining o'ziga xos qomusi, deya ta'rif beradi. Bosqinlar-u istilolar va tabiiy ofatlar oqibatida shahar o'zining o'nlab me'moriy yodgorliklaridan ayrilib mushqat onadek bo'zlab qolgan pallada Minorai kalonni qurayotgan me'mor o'sha obidalardagi

naqshlardan nusxa olgan. Mahobatli minoraga sinchiklab tikilgan kishi bu naqshlarning betakrorligini, o'ziga xosligini ko'radi. Darvoqe, uning me'mori kim? Mutaxassislar bu savolga allaqachon javob topgan. Minorada arab yozuvida bitilgan "Amali ustoz Baqo" yozuvi bu masalaga oydinlik kiritadi.

Xalq orasida minora bilan bog'liq afsona-yu rivoyatlar ko'p uchraydi. Shulardan birida aytilishicha, hayotdan ko'z yumayotib ustoz Baqo o'zini minora yaqinida dafn etishlarini vasiyat qilgan ekan. Bu

qabr hozirgacha saqlanib qolgan degan taxmin bor. Chunonchi, minoraning kunbotar tomonida joylashgan hovillardan birida qadimiy qabr bor. Uni Minorai kalonni qurgan me'morning dahmasi deb faraz qilishadi. Lekin bu haqda shu paytgacha aniq ma'lumot yo'q.

Bu hovli bizga bobomdan meros qolgan, — deydi qadimiy qabr saqlanayotgan xonadon sobihi Boburjon Mirzayev. — Bolaligim shu xonadonda kechgan. Ayni paytda hovlidan oilaviy mehmonxona sifatida foydalanaymiz. Duogo'y insonlar uchun eshigimiz hamisha ochiq.

Aytish kerakki, Buxoroning tarixiy qismida joylashgan masjid-u madrasalar, savdo toqi, karvonsoyalar, qadimiy hovillar va hatto ko'chalarda ko'plab aziz-avliyolarning qabrlarini ko'rish mumkin. Ularga yurtimiz tarixining ajralmas bir bo'lgi sifatida qarab

kelinmogda. Shu nuqtayi nazardan, Boburjon Mirzayevning qadimiy qabrni alohida bir uy qurgan holda yog'in-sochindan, tashqi ta'sirlardan asrab-avaylab kelayotgani tahsinga loyiq.

Bundan ikki-uch yilcha muqaddam "Xalq so'zi" gazetasidagi chiqishlarimizda birida ta'kidlaganimizdek, 2027-yilda Minorai kalonning barpo etilganiga 900-yil to'ladi. Shu munosabat bilan yurtimiz me'morchiligi tarixi, imoratsozlikning sharqona an'analari, qadimiy yodgorliklarni konservatsiya qilish tajribasiga bag'ishlab Buxoroda xalqaro anjuman o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunday xayrli ishlar yosh avlodning ne-ne kechmishlarning tiliz guvohi sanalgan Minorai kalon tarixi hamda uning ijodkori to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini boyitadi. Tarixning o'qilmagan sahifalarini ochishga turki beradi. Qolaversa, turizm ravnaqiga xizmat qiladi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

PAVEL BENKOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN RASSOMLIK MAKTABI

2025/2026-o'quv yiliga 7-sinfni bitirgan iqtidorli o'quvchilarning qabulini e'lon qiladi.

Hujjatlar 2025-yil 1-iyundan 30-iyungacha qabul qilinadi. Tanlovda qatnashish uchun o'quvchilardan quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- direktor nomiga ariza; (yo'nalishi, mutaxassisligi, o'qish tili ko'rsatilgan holda);
- tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma nusxasi;
- 7-sinf yakuni bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida tabel nusxasi;
- Bolalar musiqa va san'at maktablarini tamomlaganlik to'g'risida guvohnoma (mavjud bo'lsa);
- 086-U va 063-shakllar bo'yicha ma'lumotnomalar;
- 3x4 sm. hajmdagi 6 ta fotosurat;
- ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quvchining iste'dod va iqtidorini ko'rsatuvchi ishlaridan namunalari (diplom, faxriy yorliq, fotosurat hamda boshqa ijodiy ishlar namunalari — agar mavjud bo'lsa);
- chet el fuqarolari qonunda belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi 2025/2026-o'quv yili ta'lim ixtisosliklari:

1. Tasviriy san'at — tayyorlov yo'nalishlar;
2. Amaliy san'at — tayyorlov yo'nalishlar.

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Furqat ko'chasi, 6-uy.

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI» AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Jamiyatning nomi: "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati.

Joylashgan joyi: 100084, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

Elektron pochta manzillari: info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz.

Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi va manzili: 2025-yil 26-may, soat 11:00. Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

Aksiyadorlarning reyestri shakllantiriladigan sana: 2025-yil 22-may.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar:

1. "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyatining yillik umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
2. Yillik umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;
3. Aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil yakunlari bo'yicha biznes-reja bajarilishi to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash;
4. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati Bank guruhining 2024-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan yillik hisobotini tasdiqlash;
5. Aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil natijalari bo'yicha Kuzatuv kengashi hisobotini tinglash;
6. 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydani (taqsimlanmagan foyda hisob raqami bilan birga) ko'rib chiqish;
7. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini oshirish masalasini ko'rib chiqish;
8. 2024-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish;
9. Aksiyadorlik jamiyatining affilangan shaxslari bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni tasdiqlash;
10. Aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasiga (strukturasiga) o'zgartirish kiritish;
11. "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyatining 2025 — 2027-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

Ayni kunlarda mamlakatimizda "Sport oyligi" o'tkazilmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bazorov.
Musahhib Sh. Mashraboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 03.15 Topshirildi — 03.35 **1 2 3 4 5 6**